



THE INFLUENCE OF MIRZO BEDIL'S WORKS ON THE DEVELOPMENT OF PHILOSOPHICAL THOUGHT IN CENTRAL ASIA

Jamshid Tavmuradov

Lecturer at the Samarkand Campus University of Economics and Pedagogy

tavmuradovjamshid@ipu-edu.uz

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Philosophical thought, human soul, creative growth, mystical symbols, morality and values, time and space, inner development, observation, mystical thoughts, morality and society, epistemology, literary and spiritual processes, mysticism, symbolic and figurative language.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article analyzes the influence of Mirzo Bedil's work on the development of philosophical thought in Central Asia from a scientific and theoretical perspective. It examines the ontological, epistemological, and ethical ideas embodied in Bedil's works, as well as their common and distinct aspects with philosophical traditions that emerged in the region's spiritual and cultural environment. The author highlights the intellectual impact of Bedil's core principles—the concepts of human perfection, the integrity of being, spiritual purification, and mystical perception—on the worldview of Central Asian thinkers. It also examines how Sufi philosophy, Hindu-Islamic harmony, and the metaphorical imagery in Bedil's teachings were interpreted in the region's literary and philosophical schools. The study's results demonstrate the inextricable connection between Bedil's work and the philosophical heritage of the East and substantiate his place in the development of Central Asian thought based on new approaches.

MIRZO BEDIL IJODINING MARKAZIY OSIYO FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Jamshid Tavmuradov

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi o'qituvchisi

tavmuradovjamshid@ipu-edu.uz

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Falsafiy tafakkur, inson qalbi, ijodiy yuksalish, tasavvufiy ramzlar, axloq va qadriyat, vaqt va makon, ichki rivojlanish, mushohada, irfoniy fikrlar, axloq va jamiyat, bedilshunoslik, adabiy-maʼnaviy jarayonlar, tasavvuf, ramziy-majoziy til.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Bedil ijodining Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri taraqqiyotiga koʻrsatgan taʼsiri ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Bedil asarlarida mujassam boʻlgan ontologik, gnoseologik va axloqiy gʻoyalar, ularning mintaqa maʼnaviy-madaniy muhitida shakllangan falsafiy anʼanalar bilan mushtarak va farqli jihatlari oʻrganiladi. Muallif Bedil merosining asosiy tamoyillari – inson komilligi, borliqning yaxlitligi, ruhiy poklanish va irfoniy idrok konsepsiyalarining Markaziy Osiyo mutafakkirlari dunyoqarashiga koʻrsatgan intellektual taʼsirini yoritadi. Shuningdek, tasavvuf falsafasi, hind–islom uygʻunligi va Bedil tafakkuridagi metaforik obrazlar mintaqa adabiy-falsafiy maktablarida qanday talqin etilgani ham tahlil qilinadi.

**ВЛИЯНИЕ ТВОРЧЕСТВА МИРЗО БЕДИЛА НА РАЗВИТИЕ ФИЛОСОФСКОЙ
МЫСЛИ СРЕДНЕЙ АЗИИ**

Джамшид Тавмурадов

Преподаватель Самаркандского кампуса

Университета экономики и педагогики

tavmuradovjamshid@ipu-edu.uz

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Философская мысль, человеческая душа, творческий рост, мистические символы, мораль и ценности, время и пространство, внутреннее развитие, наблюдение, мистические мысли, мораль и общество, эпистемология, литературные и духовные процессы, мистицизм, символический и образный язык.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние творчества Мирзо Бедил на развитие философской мысли Центральной Азии с научно-теоретической точки зрения. Изучаются онтологические, эпистемологические и этические идеи, воплощенные в трудах Бедил, их общие и различные аспекты с философскими традициями, сформировавшимися в духовно-культурной среде региона. Автор выделяет интеллектуальное воздействие основных принципов наследия Бедил – концепций человеческого совершенства, целостности бытия, духовного очищения и мистического восприятия – на мировоззрение мыслителей Центральной Азии. Также анализируется, как философия суфизма, индуистско-исламская гармония и метафорические образы в учении Бедил были интерпретированы в литературных и философских школах региона.

Kirish. Sharq tamaddunida betakror iz qoldirgan buyuk shoir va mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil o'z davrining yirik zotlaridan biri bo'lib, «Abulma'oniyy» , ya'ni «Ma'nolar otasi» degan nom bilan tanilgan. U XVII–XVIII asrlar davomida nafaqat Hindiston va Markaziy Osiyoda, balki butun Sharq olamida fikr va ma'naviyat namoyondasi sifatida yuksak e'tirof etilgan. Bedilning badiiy merosi, falsafiy va irfoniy fikrlari, axloq va jamiyatga oid qarashlari keyingi asrlarda yashab ijod qilgan ko'plab zukko qalam egalarining — Ma'dan, Furqat, Muqimiy, Asiriy, Avaz O'tar, Ahmad Donish, Mirzo Maseho Boysuniy, Xislat, Tug'ral, Ayniy, Fitrat, Hayrat kabilarning dunyoqarashi va ijodiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Shu bilan birga, uning ulkan ilmiy va adabiy merosi mavjud bo'lsa-da, XX asrning yarmiga qadar Bedil haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Zimdan aytish lozimki, alohida olimlar tomonidan u haqda qisqa biografik ma'lumotlar, asarlaridan parchalar keltirilgan hamda fikrlari yuzasidan ayrim mulohazalar bildirilgan, biroq bu ishlar hozirgi davr ilm-fan talablari darajasida emas. Vaholanki, uning adabiy va ma'rifiy dunyosi kutilganidan ham yuksak ilmiy-axloqiy qimmatga egadir. Hind, eronlik va markaziy osiyolik manbalar, jumladan, Mirg'ulom Ali Ozod Belg'iromiy qalamiga mansub “Xazonai Omira” singari tarixiy asarlarda Bedil hayoti va falsafiy merosi xususida bag'oyat muhim, garchi juda qisqa, ma'lumotlar uchraydi .

O'zbek xalqi ma'naviy merosining taniqli tadqiqotchisi, akademik Ibrohim Mo'minov ta'kidlaganidek, Husaynqulixon o'zining “Nashtari ishq” nomli asarida Bedilning ilmiy va adabiy faoliyatini puxta tahlil qilib chiqqan.

Asosiy qism. Sharq xalqlari ma'naviyati, falsafasi va og'zaki ijod an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, mazmun jihatdan boy va chuqur ma'nolarga ega asarlar muallifi bo'lmish buyuk mutafakkir va shoir Mirzo Abdulqodir Bedilning ijodiy merosini o'rganish yo'lida bir qator yetuk olimlar izlanishlar olib borishgan. Xususan, o'zbek akademiklari I.Mo'minov , Sh.Shomuhamedov va Sh.Shukurov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar alohida ahamiyatga egadir.

Ayniqsa, adabiyotshunos Shavkat Shukurovning Bedil hayoti, ijodi va xususan, uning she'riyatidagi poetik o'zlik masalalariga bag'ishlangan ilmiy monografiyalari va tahliliy maqolalari diqqatni tortadi. Shu bilan birga, Bedilning irfoniy va badiiy asarlari turli tillarga tarjima qilingani ham uning ijodiy ta'sir doirasini kengaytirdi.

Shuningdek, ulug' shoir va faylasufning bebaho merosiga e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, uning ma'naviy dunyosi va ijodiy faoliyatini to'laqonli tadqiq etish va keng jamoatchilikka

tanitish borasidagi sa'y-harakatlarni yetarli darajada deb baholash mushkul. Aslida esa, Mirzo Bedil kabi betakror zotning ijodi bundan ko'ra kengroq va chuqurroq o'rganilishi zarur.

So'nggi uch asr mobaynida Bedilning badiiy merosi Hindiston, Afg'oniston va Markaziy Osiyo mintaqalarida keng tarqalgan bo'lsa-da, uning asarlarini to'liq anglash va to'g'ri talqin etish ko'pchilik o'quvchilar uchun oson bo'lmagan. Ayniqsa, Bedilning ba'zi asarlari shikasta xatida yozilgani, harf ustlari va ostlariga tegishli diakritik belgilarning qo'yilmagani sababli, bu matnlarni o'qish ancha murakkablik tug'dirgan. Shu omillar natijasida, uning ijodida Sharq an'anasida "nuqtaviy" uslub deb ataladigan o'ta ramziy va majozli ifoda vositalari keng o'rin olgan bo'lib, bu "obrazlar"ni to'g'ri anglash g'oyat mashaqqatli bo'lib qolgan[1, 47].

Bedilxonlik an'analari, jumladan, gulobodlik Sa'dixon domlaning xonadonida o'zbek shoir va adiblari — Chustiy, Xurshid, Habibiy, Boqiy, Anisiy, G'afur G'ulom kabilar ishtirokida o'tkazilgan badiiy-irfoniy yig'inlar, Bedil ijodiga bo'lgan qiziqishning keng miqyosda namoyon bo'lganini ko'rsatadi[2, 86]. XX asrning 20-yillaridan boshlab Bedilga bo'lgan ilmiy va adabiy qiziqish yanada jonlandi — bu davrda Miyon Buzruk, Abdurauf Fitrat va Sadridin Ayniy singari yozuvchi va olimlar uning ijodi haqida maqolalar yozdilar.

60–70-yillarga kelib, O'zbekistonda Bedil merosiga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada kuchaydi va shu davrda mustaqil bedilshunoslik maktabi shakllandi. Bu maktabga asos solganlardan biri — akademik, taniqli faylasuf va jamoat arbobi Ibrohim Mo'minov bo'lib, u shoirning ijtimoiy va falsafiy qarashlarini ilmiy jihatdan o'rgangan, maqola va risolalar yozgan hamda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Samarqandlik professor Shavkat Shukurov esa Bedilning hayoti, ijodi va ayniqsa, uning lirik asarlari haqida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borgan, yuzlab maqolalar va bir nechta ilmiy risolalar muallifi sifatida tanilgan.

Bedilning "Irfon", "Turi ma'rifat", "Muhiti a'zam" va "Tilismi hayrat" kabi asarlari Markaziy Osiyoda eng keng tarqalgan asarlaridir, biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, shoir asarlarida bayon etilgan ilg'or va original fikrlar keng o'quvchilar ommasiga yetib bormadi.

Mirzo Bedilning badiiy merosi, uslubiy xususiyatlari hamda falsafiy-irfoniy dunyoqarashi Eron adabiyotshunosligida umumiy kontekstda tahlil etilib kelingan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishdagi jiddiy ilmiy qiziqish Eronda faqat XX asr boshlaridan so'ng sezilarli darajada namoyon bo'la boshladi[3, 98]. Ilk davrlarda Bedil ijodiga bo'lgan munosabat cheklangan va parokanda xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda eronlik olimlar uning asarlarini faol o'rganmoqdalar va Bedilshunoslik alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda.

Eron adabiyotshunosligida Bedil merosini puxta o'rganish borasida katta xizmat ko'rsatgan tadqiqotchilardan biri professor Muhammad Rizo Shafe'i Kadkaniydir[4]. U Bedil haqidagi ilmiy-tahliliy maqolalar va risolalar muallifi sifatida tanilgan bo'lib, uning "Shoer-e

oyineho" ("Ko'zgular shoiri") nomli risolasi Bedil g'azallarining tahlili, lirik uslubi, til va badiiy ekspressiyasini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. Hajman qisqaligiga qaramay, ushbu asarda shoir hayoti va ijodiga oid ko'pgina noyob ma'lumotlar jamlangan[4].

Shafe'i Kadkaniy o'z izlanishlarida tojik adabiyotshunosi Sadriddin Ayniyning Bedil haqidagi ilmiy merosiga, xususan uning shoir hayoti va ijodiy yo'lining Markaziy Osiyo ma'naviy hayotida tutgan o'rniga bag'ishlangan tadqiqotlariga ko'p hollarda tayanadi[4, 83]. Uning fikricha, Ayniyning tadqiqotlari nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosdagi bedilshunoslik rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Shu nuqtai nazardan, Shafe'i Kadkaniy "Shoer-e oyineho" risolasida Bedilga nisbatan tarixiy hurmat va ehtiromni aks ettiruvchi manbalarni ham keltiradi. Jumladan, u doktor Jozef Aulning 1920 yildagi O'rta Osiyoga qilgan safaridan so'ng yozgan xotiralarini tilga oladi. Unda Aul Buxoroda Bedilga bo'lgan yuksak e'tibor va uning ma'naviy qiyofasiga nisbatan bo'lgan ehtiromni alohida ta'kidlagan. Bu ma'lumotlar esa ayni vaqtda Eron sharqshunosligi uchun yangi va noma'lum bo'lgani bilan ahamiyatlidir[4, 79].

So'nggi yillarda Eronda Bedilshunoslik sohasiga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Xudoyorning "Sadriddin Ayniy va Bedil Dehlaviy" nomli ilmiy maqolasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada muallif Sadriddin Ayniyning Bedil merosini o'rganish va uni ilmiy asosda tahlil etish borasidagi xizmatlarini yuksak baholab, uni bedilshunoslik an'anasining muhim namoyondasi sifatida ta'riflaydi. Xudoyorning fikriga ko'ra, Bedilshunoslik Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy hayotida keng ta'sir doirasiga ega bo'lgan ijtimoiy-adabiy hodisadir va S.Ayniy ushbu jarayonning shakllanishida yetakchi rol o'ynagan[12, 124].

Muallifning fikricha, Ahmad Donishdan so'ng Bedil haqida ilmiy-adabiy mulohazalar bildirgan ikkinchi yirik shaxs — Abdurauf Fitratdir. Fitrat o'zining "Bedil bir majlisda" nomli maqolasida shoirning hayoti, ijodi va falsafiy qarashlari xususida qisqacha ma'lumotlar beradi. Shu bilan birga, u Bedilning umuminsoniy g'oyalari, she'riy merosining ahamiyati hamda zamonasidagi bedilshunoslik holati haqida dolzarb fikr-mulohazalarni ilgari suradi. Bunday yondashuv Markaziy Osiyoda bedilshunoslikning mustahkam ilmiy an'analarga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi[5].

Ibrohim Xudoyorning ta'kidlashicha, Sadriddin Ayniy "Namunai adabiyoti tojik" asarini yaratishdan ancha avval ham Mirzo Bedil ijodiga qiziqish bildirgan va u haqda muayyan fikrlar bayon etgan. Taniqli tojik adabiyotshunosi Muhammadjon Shakurovning "Sadriddin Ayniy" nomli tadqiqotida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, mazkur fikrlar Ayniyning 32 yoshida, o'z davridoshi Buxoro madrasalarida birga ta'lim olgan tatar yozuvchisi Olimjon Idrisiyga yo'llagan

maktubida ifoda etilgan[12, 123]. Bu esa Bedil ijodi Ayniy diqqat markazida allaqachon mustahkam o‘rin egallab ulgurganidan dalolat beradi.

Ibrohim Xudoyorning Markaziy Osiyo adabiyoti tarixi va uning yo‘nalishlariga bag‘ishlangan “G‘aribeho-ye oshno” ("Tanish notanishlar") nomli monografiyasida ham Bedil shaxsiyati va ijodi keng qamrovli tahlil obyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, asarning to‘rtinchi bo‘limi “Movarounnahr adabiy muhitlarida bedilparastlik” deb nomlangan bo‘limda qator muhim masalalar ilmiy tahlil etiladi. Jumladan, “Movarounnahrda hind uslubi”, “Sayido Nasafiy. Soyib (Tabriziy) asri”, “Movarounnahrda Bedil va uning uslubi”, “Bedil va Toshkent adabiy muhiti”, shuningdek, “Movarounnahrda Bedil asarlarining toshbosma nashrlari tarixi” kabi mavzular mufassal ravishda yoritilgan[10].

Ushbu tadqiqot Ibrohim Xudoyorning Bedil shaxsiyati va merosini faqat yakka shoir sifatida emas, balki keng mintaqaviy adabiy-mənaviy jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilishga intilishini namoyon etadi. Shu bilan birga, u Bedilning ta’sir doirasi va hind uslubining Movarounnahr adabiy muhitidagi qabul qilinish jarayonlarini tarixi va manbalar asosida tadqiq etib, bedilshunoslikning ilmiy asoslarini yanada mustahkamlaydi. Ibrohim Xudoyor o‘z tadqiqotlarida Movarounnahrda “hind uslubi”ning tarqalishi va keyinchalik “bedilparastlik” fenomeniga aylanishiga doir muhim manbalarga murojaat qiladi. Xususan, u shunday yozadi: “Sulton Muhammad Mutribiy Samarqandiy tomonidan hijriy 1013 (milodiy 1604) yilda yozilgan «Tazkirat ush-shuaro», hamda Maleho Samarqandiyning 1093–1112 yillar oralig‘ida bitilgan ‘Muzakkir ul-as’hab’ nomli tazkiralari Movarounnahrda hind uslubining nufuzi va adabiy muhitga kirib kelish jarayonini anglashda muhim manbalardan hisoblanadi”[12, 122].

Mazkur manbalar hind uslubining dastlabki ta’sir doirasini ko‘rsatish bilan birga, keyingi davrlardagi bedilshunoslik muhiti uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, u Movarounnahrda hind uslubi keng ko‘lamda o‘zlashtirila boshlagan bosqichni aniqlashda Sayyido Nasafiyning (taxminiy vafoti 1707–1711) ijodiy faoliyati davrini muhim mezon sifatida qayd etadi. Zotan, aynan shu davrda hind uslubi badiiy ta’bir vositasi sifatida joriy mahalliy adabiy maktablar tomonidan keng qo‘llana boshlangan .

Mirzo Bedil merosi O‘zbekistonda ham an’anaviy ravishda ilmiy tahlil va adabiy-ruhiy mulohazalar obyekti sifatida keng o‘rganib kelinmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda shoir hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, xalqaro va milliy miqyosdagi anjumanlar tashkil etildi. 2005 yili Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Bedil va o‘zbek ma’naviyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman ana shunday muhim voqeliklardan biri bo‘lib, ushbu tadbir natijalari asosida shu nomdagi ilmiy to‘plam nashr etildi[10].

Mazkur to‘plamda O‘zbekistondagi yetakchi adabiyotshunos va falsafa sohasi mutaxassislarining Bedilga oid ilmiy maqolalari to‘plangan. Jumladan, N.Komilov, H.Homidiy, H.Boltaboyev, D.Salohiy, R.Vohidov, Sh.Shukurov, S.Olim kabi taniqli olimlar tomonidan Bedilning hayoti, ijodi, falsafiy-irfoniy g‘oyalari, Sharq adabiyotida tutgan o‘rni, asarlarining o‘zbek tiliga tarjimai va umuminsoniy ahamiyati xususida ilmiy tahlillar taqdim etilgan.

Ayniqsa, to‘plamda joy olgan O‘zbekiston milliy adabiyotshunosligining yirik namoyondalaridan biri, tasavvufshunos olim, professor Najmiddin Komilovning “Irfon nuri Abulma’oni” nomli maqolasi alohida e’tiborga loyiqdir[11]. Ushbu tadqiqotda Bedilning falsafiy-irfoniy qarashlari chuqur tahlil etilib, xususan, uning eng mashhur asarlaridan biri — “Irfon” dostonining (masnaviysi) g‘oyaviy-estetik mazmuni, inson tabiati va bilish jarayoni, shuningdek, inson aqlu zakovatiga nisbatan shoirning irfoniy munosabati ilmiy-hikmatiy mulohazalar asosida yoritilgan. Maqola Bedil falsafasini tanqidiy-hikmatiy tahlil etishda muhim manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Taniqli adabiyotshunos va shoir Hamidullo Boltaboyevning mazkur to‘plamdagi maqolasi Mirzo Bedil ijodini har tomonlama qamrab olgan mukammal tahlil sifatida e’tirof etiladi. U o‘z tadqiqotida shoirning adabiy merosini faqat badiiy jihatdan emas, balki uning falsafiy, irfoniy va ijtimoiy-ma’naviy kontekstdagi o‘rnini ham keng qamrovda yoritadi. Boltaboyev Bedil asarlarining shakl va mazmun, uslub va uslubiy intertekstuallik, hamda ularning Sharq adabiyoti an’analari bilan bog‘liq jihatlarini tahlil etib, uning she’riyatini o‘ziga xos ijodiy tizim sifatida tavsiflaydi[12, 116]. Shu bilan birga, olim Bedilning tafakkur uslubi, ramziy-majoziy tili va ma’naviy merosining Markaziy Osiyo adabiy muhitida tutgan o‘rniga alohida to‘xtalib o‘tadi.

Hamidullo Boltaboyev o‘z maqolasida jadidchilik harakatining shakllanishida Mirzo Bedil falsafiy merosining ta’siriga alohida e’tibor qaratadi. U xalqaro tadqiqotchilar fikrlarini tahlil qilgan holda, xususan Elen Karrere d’Enkous, Aleksandr Bennigson va Xisao Ko‘matsu kabi g‘arb olimlarining mulohazalariga tayanib, quyidagi xulosani keltiradi: Buxoroda jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi va ilk marhaladagi g‘oyaviy shakllanishida avvalombor Bedilning falsafiy-irfoniy g‘oyalari, shundan so‘ng esa Ahmad Donishning ijtimoiy-ma’rifiy qarashlari muhim o‘rin tutgan. Bu holat Bedil merosining nainki adabiy va falsafiy, balki keng ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsata olganini ko‘rsatadi[13, 153].

Manbashunos olim J. Mahmudov o‘zining “Bedil «Sho‘ro» sahifalarida” nomli maqolasida XX asr boshlarida nashr etilgan taniqli tatar matbuot organi — “Sho‘ro” jurnalida Mirzo Bedil shaxsiyati va ijodiga nisbatan bo‘lgan munosabatni tahlil etadi. Uning ta’kidlashicha, mazkur jurnal taniqli tatar ma’rifatparvari va ulamosi Rizouddin ibn Faxruddin muharrirligi ostida 1910–1911 yillarda muntazam ravishda chop etilgan va aynan shu davrdagi sonlarda Bedilga oid

maqola va munozaralar alohida o'rin egallagan. Maqolada shuningdek, mazkur nashr sahifalarida yuzaga kelgan bahs-munozaralar orqali o'sha davrdagi ma'rifiy muhitda Bedil shaxsiyati va ijodiga nisbatan xalq orasidagi qiziqish, uning ma'naviy nufuzi va ta'sir doirasi haqida muhim xulosalar yuritiladi[14, 32]. Bu holat Bedil merosining jahon islomiy-intellektual muhitida ham dolzarb ahamiyat kasb etganini tasdiqlaydi.

Xulosa. Mirzo Bedil ijodining Markaziy Osiyo adabiy va ma'naviy muhitida tobora chuqur o'rganila borishi natijasida bedilxonlik an'analari shakllanib, u keyinchalik mustaqil "bedilchilik maktabi" sifatida qaror topdi. Bu harakat Bedil asarlarini talqin qilish, ularni keng ommaga yetkazish hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya vositasiga aylantirish jarayonida muhim madaniy hodisa bo'lib maydonga chiqdi.

Bedil ijodida yuksak darajada rivojlangan "sabki hindiy"ning ildizlari esa fors-tojik va turkiy adabiyotning buyuk namoyandalari ijodiga borib taqaladi va keyingi asrlarda ko'plab yirik shoirlar tomonidan yanada takomillashtirildi. Bu uslubning yetuk shakllanishi va keng yoyilishi turli davr va makonlarda yashagan ijodkorlar ijodiy merosining uzviy bog'lanishi natijasidir.

Ushbu jarayonning kuchayishi Temuriylar davlati hukmdorlari tomonidan Hindistonda yaratilgan ilmiy-madaniy muhit, saroy homiyligi va ma'naviy ko'mak bilan mustahkamlandi. Natijada "hind uslubi" Bedil shaxsiyati misolida o'zining eng yuksak bosqichiga ko'tarilib, keng qamrovli madaniy-adabiy taraqqiyotning pirovard mahsuli sifatida shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бедил. Комде и Мудан. – Москва. Изд. Худ. Литра, 1955.
2. Бедил. Комде ва Мудан. Назармат таржимаси. – Тошкент, 1960.
3. Э.Очилов. Бедил асарлари ўзбек тилида. / Бедил ва ўзбек маънавияти. – Б.136-140.
4. Кадканий, Мухаммадрэзо Шафъий. Шобъэр-э ойинэ-хо (Барраси-йэ сабк-э хэндий ва шэър-э Бидэл). – Тэхрон: "Огох", 1366. – С.83.
5. Форс-тожик шеърятти намуналари. – Тўпловчилар А.Дехотий ва Раҳимий. - Сталинобод, 1940.
6. Айний С. Мирзо Абдулқодир Бедил. Сталинобод, 1954
7. Рипка, Ян ва диг. Тарих-э адабиёт-э Ирон. Таржумэ-йэ Кэйхўсрав Кэшоварзий. Ж. 1. – Тэхрон: "Гутэнбўрг" ва "Жовэдон хэрад", 1370.
8. Бечка, Иржи. Адабиёт-э форсий дар Тожэкэстон. Таржумэ-йэ Махмуд Обэдиён ва Саъид Абонэжод Хэжрондуст Ж. 1. – Тэхрон: "Марказ-э мўтолэёт ва таҳқиқот-э фарҳанги-йэ бэйнўлмэлалий, 1372.

9. D'Encausse Helene Carrere. Islam and the Russian Empire / Reform and revolution Central Asia. – London. – 1988. pp.88-207.
10. Бурхониддин Номиқ Шаҳроний. Бедилхонлик ва бедилшунослик диёрига қисқача сафар. Тошкент. -2019 йил.– Б. 55-56.
11. Нажмиддин Комилов. Ирфон нури Абулмаъоний. // Бедил ва ўзбек маънавияти. Халқаро илмий анжуман материаллари. –Техрон – Тошкент. “Ал-Ҳудо” халқаро нашриёти ва “Мовароуннаҳр” нашриёти. 2005. –Б.3- 18.
12. Худоёр, Иброҳим. Ғарибаҳо-йэ ошно (Шэър-э форсий Мовароуннаҳр қарни бист бо така бар муҳитҳо-йэ адабий Хўқанд ва Хоразм). –Техрон: Муассасаи мутолаоти миллий, тамаддуни Ироний. 1384 (2005) –С. 111- 126.
13. М.Белғиромий. Хазонаи Омира. Литографик нашр. – Бомбей, 1800. – Б.152-166.
14. Ҳомидий Ҳ. Ҳар жабҳада мумтоз./ “Бедил ва ўзбек маънавияти”. – Т.: “Мовароуннаҳр”, Техрон: : "Ал-Ҳудо" халқаро нашриёти, 2005. -Б. 32